



THE NEED FOR PRESCHOOL EDUCATION AND ITS IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN IN THE POST-WAR YEARS

Iroda Tishabayeva

Associate Professor

Fergana State Technical University

Fergana, Uzbekistan

E-mail: tishabayevairodahon@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: preschool education, kindergartens, collective farm, sanitary and hygienic, mandatory, stage, technical base, territory, resource.

Received: 17.05.25

Accepted: 19.05.25

Published: 21.05.25

Abstract: This article is dedicated to analyzing the development of the preschool education system in the Uzbek SSR in the late 1940s and early 1950s, along with the existing challenges during this period. The research covers examples from Samarkand, Kashkadarya, and other regions, focusing on the sanitary conditions of preschool institutions, resource shortages, and the operation of children's schools under the kolkhoz system. The article analyzes the 1949 preschool enrollment plans, their implementation, and regional discrepancies.

URUSHDAN KEYINGI YILLARDA O'ZBEKİSTONDA MAK TABGACHA TA'LIMGA BO'LGAN EHTİYOJ VA UNİNG BAJARILISHI

Iroda Tishabayeva

dotsent

Farg'onə davlat texnika universiteti

Farg'onə, O'zbekiston

E-mail: tishabayevairodahon@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lif, bolalar bog'chalari, kolxozi, sanitariya-gigiyena, majburiy, bosqich, texnik baza, hudud, resurs.

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1940-yillarning oxiri va 1950-yillarning boshlarida O'zbekiston SSR hududida maktabgacha ta'lif tizimining rivojlanishi va mavjud muammolarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda Samarqand, Qashqadaryo va boshqa viloyatlar misolida maktabgacha tarbiya muassasalarining sanitariya-gigiyenik sharoitlari, resurslar yetishmovchiligi, va

kolxoz tizimi sharoitida tashkil etilgan bolalar bog‘chalarining faoliyati o‘rganilgan. Maqolada 1949-yilda belgilangan mактабгача та’лим bilan qamrab olish rejalari, ularning bajarilishi va hududiy nomutanosibliklar tahlil qilinadi.

ПОТРЕБНОСТЬ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ В ПОСЛЕВОЕННЫЕ ГОДЫ И ЕЕ РЕАЛИЗАЦИЯ

Иродда Тишибаева

Доцент

Ферганский государственный технический университет

Фергана, Узбекистан

E-mail: tishabayevairodahon@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: дошкольное образование, детские сады, колхоз, санитарно-гигиеническое, обязательное, этапное, техническая база, территория, ресурс.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу развития системы дошкольного образования в Узбекской ССР в конце 1940-х - начале 1950-х годов, а также существующих проблем в этом процессе. Исследование охватывает примеры из Самаркандинской, Кашкадарьинской и других областей, где рассматриваются санитарно-гигиенические условия дошкольных учреждений, нехватка ресурсов, а также деятельность детских садов, организованных в условиях колхозной системы. В статье анализируются планы по охвату детей дошкольным образованием в 1949 году, их выполнение и территориальные несоответствия.

Кириш (Introduction)

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalari sonini ko‘paytirish, ularning moddiy- texnik sharoitlarini yaxshilash va yangi bog‘chalar qurilishi davlat dasturi doirasida bosqichma- bosqich amalga oshirilmoqda. Ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olgan holda, xususan, nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarining rivojiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa sohada sog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltirib, ta’lim xizmatlari ko‘lamini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma- ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritildi. Unda O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimining 1940-yillar oxiri va 1950-yillarning boshlaridagi rivojlanish jarayonlari, mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Xususan, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida

maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishiga ta’sir etgan ijtimoiy-iqtisodiy faktorlar, sanitariya-gigiyenik sharoitlar va kolxozi tizimining roli o‘rganiladi. Shu bilan bir qatorda, davriy nashrlar va arxiv manbalarida keltirilgan ma’lumotlar ham tahlil qilingan.

Ushbu davr o‘rganilganda bir necha olimlarning tadqiqot ishlari ham ko‘rib chiqildi. Maktabgacha ta’lim muassasalarining rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilgan bir qator ilmiy ishlar mavjud bo‘lsa-da, bu tizimning rivojlanishiga ijtimoiy-iqtisodiy omillar, kolxozi tizimi va sanitariya-gigiyenik sharoitlarning ta’siri to‘g‘risidagi tadqiqotlar nisbatan cheklangan. Hususan, N. Quvvatovaning “XX asrning 20-80-yillarda O‘zbekiston qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti (Qashqadaryo viloyati misolida)” nomli ilmiy tadqiqot ishida Qashqadaryo viloyatida tashkillangan ayrim bo‘g‘chalar haqida ma’lumotlar berib o‘tgan. A. Tursunmuhamedovning “O‘zbekiston xotin-qizlari” jurnalida chop etilgan maqolasida Namangan, Xorazm, Samarqand viloyatlaridagi maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi natijasida ayollarning paxta dalalariga ko‘proq jalb qilinganligi haqida so‘z boradi.

Ushbu ilmiy maqola doirasida O‘zbekiston SSR hududidagi maktabgacha ta’lim tizimi, ayniqsa, Samarqand, Qashqadaryo, Xorazm kabi viloyatlaridagi o‘ziga xos holatlarning o‘rganilishi dolzarb bo‘lib, bu mavzuda olib borilayotgan izlanishlar mavjud ilmiy ishlarda to‘liq qamrab olinmagan.

Tadqiqotda O‘zbekiston SSRning maktabgacha ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, qishloq hududlarida bolalar bog‘chalarining tashkil etilishi, sanitariya-gigiyenik sharoitlar va kolxozi tizimining ta’siri kabi masalalar birinchi marta chuqur tahlil qilinmoqda.

Natijalar:

O‘zbekistonda 1946-1991-yillardagi maktabgacha tarbiya muassasalarining tarixi shu davrdagi ta’lim siyosati va o‘zgarishlarga qarab shakllandi. Biroq, bu davrda to‘liq tarixiy tafsilotlarga kirishish murakkab va har tomonlama yoritish imkoniy yo‘q.

Ikkinci jahon urushidan keyingi davrda sovet hukumati xalq xo‘jaligini tiklash va rivojlantirish maqsadida besh yillik rejalgarda asoslangan dasturlarni ishlab chiqdi. Bu rejalar orqali ishlab chiqarishni ko‘paytirish, aholi turmush darajasini yaxshilash hamda madaniy sohada urushdan oldingi ko‘rsatkichlarga erishish va ularni ortda qoldirish maqsad qilingan edi. Besh yillik dasturlarda boshlang‘ich va umumta’lim maktablarini, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarini kengaytirish rejalahtirildi. Bundan tashqari, bolalar bog‘chalari va madaniy-ma’rifiy muassasalar sonini ko‘paytirish ham muhim vazifalardan biri sifatida ko‘rilgan.

Tahlil natijalari ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ining rivojlanishida jiddiy nomutanosibliklar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Jumladan, ushbu davrning dastlabki bosqichlarida bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi

judu past bo‘lgan. Bunga asosiy sabablar sifatida SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1943-yil 8-sentabrdagi 964-sonli qaroriga muvofiq 1944-yildan boshlab 7 yoshli bolalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshlang‘ich mактабларга jalb etilishi hamda urush yillarida tug‘ilish ko‘rsatkichining keskin kamaygani qayd etiladi. Bu omillar maktabgacha ta’limga bo‘lgan talab va resurslar o‘rtasidagi nomuvofiqlikni kuchaytirgan hamda tizimning izchil rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan [3.14.].

1945-yilga kelib, maktabgacha tarbiya muassasalari umumta’lim maktablarini 4000 nafar tarbiyalanuvchi bilan ta’minlagan [4. 238.]. Bu holat urushdan keyingi davrda bolalarmi maktab ta’limiga tayyorlash borasida maktabgacha ta’lim tizimining muayyan darajadagi faoliyatini aks ettiradi. Urush yillarida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz, inson resurslari tanqisligi hamda demografik ko‘rsatkichlarning pasaygani sharoitida bu ko‘rsatkich sezilarli ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda, bu raqam maktabgacha ta’lim muassasalarining cheklangan qamrovini ham ko‘rsatib beradi. Tarbiyalanuvchilarning nisbatan kam soni, bir tomondan, mavjud moddiy-texnik baza va pedagogik kadrlar salohiyatining yetarli emasligidan dalolat bersa, boshqa tomondan, urushdan keyingi davrda davlat tomonidan maktabgacha ta’lim tizimini qayta tiklash va tarmoqlarini kengaytirishga ehtiyoj mayjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

1945-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston SSR hududida doimiy faoliyat yurituvchi bolalar bog‘chalariga jami 23 378 nafar bola qatnagan [5.241.]. Shundan 17 565 nafari shaharlarda joylashgan bog‘chalarda, 5 813 nafari esa qishloq hududlaridagi muassasalarda tarbiyalangan. Ushbu ma’lumotlar shaharlarda maktabgacha ta’lim muassasalarining nisbatan kengroq rivojlanganini va aholining ulardan foydalanish imkoniyatlari yuqoriligini, qishloqlarda esa ushbu tizimning hali to‘liq shakllanmaganini ko‘rsatadi

Urush boshqa ittifoqdosh respublikalar kabi, O‘zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga katta zarar etkazdi. Boshqa sohalar bilan bir qatorda, maktabgacha ta’lim tizimida ham qator muammolarlardan biri qamrov darjasini urushdan oldingi holatdan pasayib ketdi. Mazkur ma’lumotlar 1946-yilda O‘zbekistonda maktabgacha tarbiya muassasalariga qamrab olish holati va uning 1940-yilga nisbatan o‘zgarishini tahlil qilishda yordam beradi. 1940-yilda Qoraqalpog‘iston ASSR da urushdan oldin 1033 nafar bolalar tarbiyalangan bo‘lsa, 1946-yilda bu ko‘rsatkich 794 nafarni tashkil etib, 25 foizga kamaydi. Bu kabi kamayish Surxondaryo oblastida ham kuzatilgan. Ushbu oblastda 1940-yilda 493 nafar bola maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalangan bo‘lsa, 1946-yilda bu raqam 421 nafargacha kamaygan[6.250.]. Bu holat 16,2 foizga qisqarish demakdir. Bunday xolat boshqa hududlarda ham qayd etilgan. Shunga qaramay, ayrim hududlarda aksincha, qamrov ortganligini arxiv manbalarida qayd etilgan. Masalan, Xorazm oblastida, 1940-yil - 47 nafar bola maktabgacha tarbiya muassasalarida

tarbiyalangan bo'lsa, 1946-yilda - bu ko'rsatkich 388 nafarga yetgan, ya'ni 17,6 foizlik o'sish kuzatilgan [6.250.]. Buning sabablari hududiy farqlar, aholi joylashuvi yoki mahalliy hokimiyatning bolalar bog'chalariga ko'proq e'tibor qaratishi bilan bog'liq.

1948-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston SSRda bolalarni maktabgacha tarbiya muassasalariga jalg etish hali ham yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan edi. Ayniqsa, vodiy viloyatlarida bolalar soni bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi bolalar bog'chalariga qatnov darjasini boshqa hududlarga nisbatan yuqoriqoq bo'lgan bo'lsa-da, umumiy maktabgacha yoshdagi bolalar soniga nisbatan olganda, ushbu ko'rsatkichlar nihoyatda past bo'lgan.

Statistik ma'lumotlar 1948-yilda vodiy oblasttlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni bolalar bog'chalariga qamrab olish darjasini respublikaning boshqa hududlariga nisbatan ancha past bo'lganini ko'rsatadi. Masalan, Andijon oblastida maktabgacha yoshdagi bolalar soni 11 379 nafarni tashkil etgan bo'lsa-da, faqatgina 2 ta bolalar bog'chasi faoliyat yuritgan va ularga atigi 145 nafar bola jalg etilgan. Bu esa umumiy bolalar sonining bor-yo'g'i 1,27 foizini tashkil etadi. Xuddi shunday holat Namangan oblastida ham kuzatiladi: 10 ming nafarga yaqin maktabgacha yoshdagi bolalardan atigi 140 nafari (1,4%) yagona mavjud bolalar bog'chasiga qamrab olingan[7.27.].

Mazkur ko'rsatkichlar respublikaning boshqa hududlari bilan qiyoslanganda vodiy viloyatlarida maktabgacha ta'lim tizimining nisbatan sust rivojlananini yaqqol ko'rsatadi. Masalan, Toshkent shahrida faoliyat yuritgan 2 ta doimiy maktabgacha ta'lim muassasasida 500 nafar bola tarbiyalangan bo'lib, bu umumiy bolalar sonining 10,2 foizini tashkil etgan. Shuningdek, Samarqand oblastida bitta bog'chada 120 nafar bola (4,6%), Buxoro oblastida esa 2 ta muassasada 260 nafar bola (11,9%) maktabgacha ta'limga jalg etilgan [7.37.].

Bu raqamlar maktabgacha ta'limning hududlararo rivojlanishidagi nomutanosiblikni ko'rsatibgina qolmay, shuningdek, resurslar taqsimotidagi tengsizlik, demografik zinchlik va infratuzilma holatining farqliligiga ham ishora qiladi. Shu sababli, vodiy viloyatlarida maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishini ta'minlash maqsadida kompleks choralar ko'rishga ehtiyoj mavjud bo'lgan.

1948-1949-yillarda Qashqadaryo oblast Koson rayoni markazida 2 ta yasli, 3 ta bolalar bog'chalari, 58 ta mavsumiy bolalar bo'g'chalari tashkillandi [2.92.].

1949 yilgi bolalarni maktabgacha talim muassasalari bilan qamrab olish rejasini Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari hisobiga faqat 80 foizga bajarildi [8.5.]. Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari reja bo'yicha 25 ming bolalarni qamrab olishi kerak edi, amalda 18 ming bola maktabgacha talim muassasalariga jalg qilindi xolos .

1949-yilda VKP(b) markaziy komiteti va SSSR Ministrlar sovetining “Maktabgacha tarbiya muassasalari va tug‘ruq uylari tarmoqlarini kengaytirish va faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori qabul qilindi. Bu qaror ijrosini ta’minalash maqsadida oblastlarda tekshiruvlar o‘tkazilgan. Hususan, tekshiruvlar natijasida 1949-yilda Samarqand oblastidagi kolxozlarga qarashli bolalar bog‘chalariga qatnayotgan bolalar sonida sezilarli kamayish kuzatilgan. 20-avgust holatiga ko‘ra, bu muassasalarga 18 066 nafar bola jalb qilingan bo‘lsa, bir oy o‘tib, 20-sentyabrga kelib ushbu ko‘rsatkich 14 959 nafargacha pasaygan [9.1.]. Bu pasayishning asosiy sabablari sifatida kolxozlardagi maktabgacha ta’lim muassasalarining sanitariya-gigiyena talablariga javob bermasligi va yangi mavsumiy bolalar bog‘chalarining tashkil etilmaganligi ko‘rsatiladi. Bu esa mavjud bog‘chalar faoliyatining izchil va barqaror olib borilishini izdan chiqqargan.

1950-yilda Xorazm oblasti kolxozlariда bolalar muassasalari ishlarini yo‘lga qo‘yish oyligi o‘tkazildi. Tumanlarga maktabgacha talim muassasalari xodimlari va vrachlardan 22 kishi, tumanlardan kolxozlarga 189 kishi yordamga jo‘natildi. Natijada 160 ta yasli va bog‘chalar faoliyati yaxshilandi va qo‘srimcha 686 nafar ayollar dalaga ishga chiqdi. Samarqand oblasti Jizzax tumani Budyonniy nomli kolxozda bolalar muassasasi uchun 7 xonali bino qurildi va jihozlar bilan taminlandi [1.16.]. Bundan kelib chiqadiki, ko‘proq xotin-qizlarni dala ishlariga jalb etish maqsadida maktabgacha talim muassasalarini zo‘r berib ko‘paytira boshlaganlar.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, urushdan keyingi yilda O‘zbekiston SSR hududlarida, jumladan, Samarqand va Qashqadaryo oblastlarida maktabgacha ta’lim tizimi jiddiy muammolar bilan yuzma-yuz kelgan. Raqamlar ma’lumotlar bolalarni bog‘chalarga jalb etish darajasi rejaga nisbatan past bo‘lganini, mavjud muassasalar esa sanitariya-gigiyena talablariga javob bermaganini ko‘rsatadi. Mavsumiy bog‘chalar tashkil etilmaganligi esa ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minalashga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Umuman olganda, bu davrda maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishi hududiy nomutanosiblik, resurslarning yetishmasligi, va muassasalarning past darajadagi jihozlanganligi bilan cheklangan. Mazkur holatlar kelgusi yillarda maktabgacha ta’limni isloh qilish va uni barqaror rivojlantirish zaruratini keskin oshirgan.

Foydalanoligan adabiyotlar:

1. Tursunmuhamedova A. Bolalar muassasalari ishlarini yo‘lga qo‘yilishi mo‘l hosil garovidir.//O‘zbekiston xotin-qizlari. – 1951. – №6. – Б.16.

2. Quvvatova N. XX asrning 20-80-yillarida O‘zbekiston qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti (Qashqadaryo viloyati misolida)”. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun taqdim etilgan dissertatsiya. 92-bet.
3. Maktabgacha tarbiya spravochnigi: asosiy qonun va instruktiv hujjatlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974. – Б. 14.
4. O‘z MA, R.94-fond, 5-ro‘yxat, 4781-ish, 238-varaq.
5. O‘z MA, R.94-fond, 5-ro‘yxat, 4781-ish, 241-varaq.
6. O‘zMA, R. 94-fond, 5-ro‘yxat, 4781-ish, 250-varaq.
7. O‘z MA, R.94-fond, 5-ro‘yxat, 5117-ish, 27–37-varaq.
8. O‘zMA, R. 94-fond, 5-ro‘yxat, 5490-ish, 5-varaq.
9. O‘zMA, R. 94-fond, 5-ro‘yxat, 5302-ish, 1-varaq.